

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

MULOQOT ISHTIROKCHILARINING MULKIY MUNOSABATIGA KO‘RA IJTIMOIY MAQOMINING IFODALANISHI

Ro‘zimatova Dilnoza Murodovna

O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

E-mail: dilnozarozimato05@mail.com

Tel: 91 790-96-45

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy muloqot, tilshunoslikda ijtimoiy maqom tushunchasi, uning nutq jarayonida ifodalanishi haqida ma’lumot berilgan. Turli jamiyatlardagi ijtimoiy tabaqalar, ijtimoiy sinflar, ular nutqining o‘ziga xos jihatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan. Insonlar o‘rtasidagi eng qadimiy hisoblangan moddiy jihatdan farqli shaxslar nutqining o‘ziga xos jihatlari, muloqot jarayonidagi holatlari bayon qilingan. Muloqotning o‘zaro teng va teng bo‘lmagan ishtirokchilari o‘rtasida bo‘ladigan suhbatlarda ishlatiladigan til birliklari ko‘rsatib o‘tilgan. Ijtimoiy maqomning suhbat jarayoniga qanchalik ta’siri misollar yordamida tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: so‘zlovchi, tinglovchi, nutqiy muloqot, ijtimoiy maqom, verbal vositalar, muloqot jarayoni, vulgarizm, olmoshlar

ВЫРАЖЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО СТАТУСА УЧАСТНИКОВ КОММУНИКАЦИИ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ИХ ИМУЩЕСТВЕННЫХ ОТНОШЕНИЙ

Аннотация: В данной статье представлена информация о речевом общении, понятии социального статуса в лингвистике и его выражении в процессе речи. Рассмотрены социальные слои и классы в различных обществах, особенности их речи. Описаны характерные черты речи людей с различным материальным положением, считающиеся одними из древнейших различий между людьми, а также ситуации их общения. Указаны языковые единицы, используемые в разговорах между равными и неравными по статусу участниками коммуникации. На примерах пояснено, насколько социальный статус влияет на процесс беседы.

Ключевые слова: говорящий, слушатель, речевое общение, социальный статус, вербальные средства, процесс общения, вульгаризм, местоимения

EXPRESSION OF THE SOCIAL STATUS OF COMMUNICATION PARTICIPANTS BASED ON THEIR PROPERTY RELATIONS

Abstract: This article provides information on speech communication, the concept of social status in linguistics, and its expression in the speech process. The paper discusses social strata and social classes in different societies, as well as the distinctive features of their speech. It describes the characteristics of speech among individuals with material differences, which is considered one of the oldest forms of distinction between people, and examines how these differences manifest in the communication process. The article identifies the language units used in conversations between equal and unequal participants in communication. Using examples, it explains the extent to which social status influences the conversation process.

Keywords: speaker, listener, speech communication, social status, verbal means, communication process, vulgarisms, pronouns

KIRISH. So‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi ma’lum bir axborotni berish va qabul qilish faoliyati nutqiy faoliyat hisoblanishi barchaga ayon. Nutqiy muloqot deganda muloqot jarayonida lisoniy verbal va noverbal vositalarning (birgalikda) hamkorlikda ishlatilishi tushuniladi. Til muloqot ishtirokchilarning ijtimoiy maqomini tasdiqlovchi asosiy vositadir. Nutq egasi tanlagan o‘ziga xos murojaat birliklari, nutqiy etiket shakllari uning ijtimoiy maqomi haqida ma’lum axborot bera oladi. Muloqotda so‘zlovchining turli xatti-harakatlari, ohangi ham ijtimoiy maqomni ifoda etishi mumkin. Ijtimoiy maqom bir tomondan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-axloqiy xususiyatlari bilan, ikkinchi tomondan esa shaxslarning ijtimoiy tabaqalanishi bilan belgilanadigan sotsiologvistikaning asosiy tushunchalaridan biridir. V.I. Karasik bergan ma’lumotlarga ko‘ra, ijtimoiy maqom ko‘rsatkichlariga insonlarning yashash tarzi, boshqalar bilan muloqoti hamda nutq kiradi [2:22]. Shuningdek, ushbu tushuncha hurmat va xushmuomalalik bilan baholanadi. Suhbatgacha bir-birlari haqida ma’lumotga ega bo‘lmagan muloqotchilar suhbatdoshining kiyinishi, o‘zini tutishi orqali qaysi ijtimoiy maqomga ega ekanliklari haqida noaniq, tasdiqlanmagan ma’lumotga ega bo‘lishi mumkin. Chunki insonning yashash tarzi, kiyinishi, nutqi uning aslida kim ekanligi haqida ma’lumot bera oladi.

Hozirda zamonaviy sotsiologlarning ijtimoiy tabaqalanish va uning kelib chiqish tabiati haqidagi nazariy qarashlari oldingi nazariyalardan sezilarli darajada farq qilishi mumkin, biroq amalda muayyan ijtimoiy tabaqaga mansub deb hisoblangan mezonlar shaxslarning daromadi, ta’limni qay darajada egallaganligi, iste’mol me’yorlari, kasbiy malaka va hokimiyat tomonidan berilgan vakolatlarining hajmi hisoblanadi. Mavjud turli yondashuvlarga ko‘ra, hozirgi sanoati rivojlangan davlatlarda aholining taxminan uchdan ikki qismi o‘rta sinfga mansub deb hisoblanadi [5:343]. Ayrim manbalarda insonning ijtimoiy maqomini tasniflashda yetakchi o‘rinlardan birida turuvchi ularning “moddiy” holatlari uch darajada aks ettirilgan: yuqori daraja, asosiy daraja “boylar” va “kambag‘allar” tushunchalari bilan, quyi daraja esa “o‘ta boy”, “ta’minlangan”, “ta’minlanmagan” va “muhtoj” tushunchalari bilan ifodalanadi [1:39]. Jamiyatlardagi ijtimoiy maqom munosabatlari milliy-madaniy o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, bu holat tilda ham aks etadi. Chunki har bir xalq o‘z mentaliteti, milliy-madaniy qarashlarini til

orqali yuzaga chiqaradi. Masalan, graf, qirol, qirolicha, oligarx singari sinfiy yuqorilikni ifodalovchi so‘zlar Yevropada ko‘p uchragan, bizda esa uning o‘rnida tarixiy asarlardan xon, xonzoda, shahzoda, amirzoda singari birliklarni uchratish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Amerikalik sotsiolog E. Uilson XX asrning 40-yillari oxirlarida Amerika Qo‘shma Shtatlardagi jamiyatning turli qatlamlarining didi va afzalliklariga oid qiziqarli ma‘lumotlarni taqdim etadi. Unga ko‘ra, odamlarning to‘rt tabaqasi mavjud: High Brow, Upper Middle Brow, Lower Middle Brow, Low Brow, ya‘ni baland qoshilar – jamiyatning elita qatlami, “past” va oraliqdagi ikki qatlam. Ushbu toifalar o‘rtasidagi farqlar esa ularning kiyim-kechagi, foydalanayotgan mebellari, mashinasi, ichadigan ichimliklari-yu, salatlarigacha, hatto o‘zaro suhbat mavzusi, qayerda o‘yin-kulgi qilishlari ham hisobga olinishini ta‘kidlangan [2:20]. Albatta, bunday tartibga solish ma‘lum darajada subyektiv hisoblangan. Bundan tashqari bu yerda faqat erkaklarning didi va yoqtiragan narsalari tahlil qilingan, garchi sotsiologik adabiyotlarda ta‘kidlanganidek, ingliz tilida so‘zlashadigan jamiyatdagi ayollarning ijtimoiy maqom ko‘rsatkichlari erkaklarnikiga qaraganda ko‘proq ahamiyatga ega bo‘lsa ham. O‘sha davrning elita uslubidagi kiyimining belgisi qimmatbaho Xarris tvid kostyumi edi, payetli galstuk va shlyapa esa kiyim sohibining pastki o‘rta qatlamga tegishli ekanligini ko‘rsatgan, to‘qilgan poyabzal esa insonning eng past maqomi ko‘rsatkichi edi. Elita qatlamining ko‘ngilochar joyi sifatida balet va teatni ko‘rsatish mumkin bo‘lgan, oddiy odamlar esa mashhur musiqiy filmlar va kovboylar haqidagi tomoshalarni xush ko‘rishgan. Bundan tashqari, insonlarning qanday salat yeyishlari ham ularning jamiyatning qaysi qatlamiga oid ekanligini namoyon etgan [2:20]. Yuqori sinfga mansublikning belgisi – bu hamma narsaning ortiqchaligi hisoblangan, jumladan, uyda oila a‘zolariga kerak bo‘lganidan ko‘ra ko‘proq xona bo‘lishi, oilaning har bir a‘zosiga alohida mashinaning bo‘lishi, turli ob-havoga mos har xil kiyimlar ham ularning aslida kim ekanligi haqida ma‘lumot bera olgan. O‘sha paytda AQShda yuqori qatlam egasining kiyimida ko‘pincha “Adidas” yozuvi bo‘lgan. Ovqatni tez yutib yubormaslik ham yuqori tabaqa vakillariga odatlardan biri hisoblangan.

O‘tgan asrning boshlarida Turkiston hududida ham insonlarning yashash tarzi, kiyimi ularning qaysi tabaqaga mansubligidan dalolat berib turgan. Krisin asarlarida ijtimoiy maqom tengsizligi sharoitida nutqning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari batafsil tavsiflangan [3:888]. Shuningdek, V.I.Karasik asarlarida quyidagi aniq mezonlar bilan insonning jamiyatda qaysi guruhga mansub bo‘lishi mumkinligini aytadi: mashg‘ulot turi, daromad manbayi, kelib chiqishi, ma‘lumoti, yashash sharoiti va boshqalar. U lavozimning quyidagi tabaqalanish darajasini ko‘rsatib o‘tgan: 1) oliy darajadagi mutaxassislar – ular davlat lavozimida ishlovchilar, ya‘ni shifokorlar, olimlar hamda universitet professorlari va yirik tashkilot rahbarlari; oliy darajadan pastroq kasb egalari: injenerlar, yuristlar va boshqa kasb egalari; kichik darajadagi kasb egalari esa hisobchilar, hamshiralar, kichik tashkilot rahbarlari va boshqa toifa vakillari kiradi; to‘liq bo‘lmagan malakaga(ma‘lumotga) ega bo‘lganlar: ishchilar; malakaga ega bo‘lmaganlar guruhlariga bo‘lib o‘tgan [2:46].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ijtimoiy maqom turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, jumladan, suhbatdoshlar o‘rtasidagi mulkiy farqlarga ko‘ra yoki mulkiy jihatdan farq qilmaydiganlar orasidagi suhbatda ular tildan qanday foydalanishlari mumkinligi borasida ayrim fikrlarni berib o‘tamiz. Insonning jamiyatdagi maqomini aniqlashning eng qadimgi jihatlaridan biri moddiy tomonidir. Insonning maqomi ko‘pincha uning jamiyatdagi nufuzi va kuchini belgilaydi, bu uning yuqori yoki quyi shaxslar bilan muloqot qilish uslubida aniq iz qoldiradi.

Hozirgi o‘zbek jamiyatshunosligida jamiyatni yuqori, o‘rta va quyi qatlamga ajratish qariyb kuzatilmaydi, jamiyani bu tarz tabaqalashdan tiyiniladi, balki, boshqaruvchi, tadbirkor, ziyoli, ehtiyojmand qatlamlar tilga olinadi. Sotsiologvistikani esa ijtimoiy toifalarning tildan foydalanishdagi o‘ziga xosliklari qiziqtiradi. Aslida ham, aholi toifalari o‘z turmush tarzi hamda faoliyatidan kelib chiqib, tilning turli yashash shakllaridan foydalanadi [4:12]. Moddiy jihatdan yuqori turuvchi insonlar, o‘zidan pastroq turuvchilarga nisbatan mensimaslik, do‘q urish singari xatti-harakatlarni ifodalovchi so‘zlardan foydalanishi barchaga yoshlikdan aytilib beriladigan ertaklardan, keyinchalik hikoyalardan, kinolardan, spektakllardan, badiiy asarlardan ma’lum. Chunki pul qudratli kuchga ega ekanligi barchaga ma’lum bo‘lgan tushunchadir. Moddiyati yuqori insonlar nutqida suhbatdoshni o‘ziga teng ko‘rmasa, vulgar, so‘zlarni, to‘liqsiz gaplarni ko‘p ishlatadi. Ularning nutqlarida oddiy so‘zlashuv uslubidan foydalanish yetakchilik qiladi. Tildan me’yorlarga bo‘ysungan holda emas, balki erkin foydalanish ham ularning uslubiga xosdir. So‘z tanlashda ham erkinlik mavjud, chunki maqomi yuqori shaxs o‘zidan past maqomli shaxs oldida til birliklaridan foydalanishda ancha erkin hisoblanadi. Ularning xatti-harakatlarida ham birmuncha erkinlikni kuzatish mumkin. Lekin vaziyatga qarab ish tutishni yaxshi bilishadi, masalan, asli kimligini kiyimidan bilmay turgan odam, unga kerakli, muhim inson ekanligini payqab qolganida birdan ovozida ham o‘zgarish ro‘y beradi. Jamiyatda insonning kimligiga qarab muomala qilish hali ham uchrab turadi.

“Sayfi Soqiyevich alik olaymi-olmaymi, deb ikkilanib qolganday bir lahza jim turdi-da, qovog‘ini solib, “Salom” deb qo‘ydi. “O‘hho‘! Dimog‘ masalasi juda baland-ku! Kun bo‘yi bu joyni saqlab turishgani bejizmas ekan, shekilli”. Sherzod miyigida kulib kuydi. Sayfi Soqiyevich Sherzodga bir qoshini baland, bir qoshini past qilib qarab qo‘ydi. Chamasi, u bunaqa “yosh bola” bilan hamxona bo‘lib qolganiga ko‘pam xursand emasdi...” (O‘. Hoshimov. “Nur borki, soya bor”).

Parchadan ma’lum bo‘ladiki, insonlar o‘rtasida oddiygina salolmashish jarayoni ham uning jamiyatdagi nufuziga, kiyim-boshiga qarab berilganini ko‘rish mumkin.

...U, mudir allaqachon ketib qolgan bo‘lsa kerak, deb o‘ylagan edi. Yo‘q, ketmagan ekan.. Sherzod ostonada to‘xtab qoldi. Mudir boshini burib shu tomonga qaradi. – Nima gap? – Yettinchi palatada bitta joy bo‘shadi, – dedi Sherzod sovuqqonlik bilan. Mudir yuzini o‘girdi. Loqayd bosh silkib qo‘ydi. – Xabarim bor. – Yo‘lakdagi chol ikki kundan buyon joy kutib yotibdi. Mudir yana Sherzod tomonga boshini burdi. Ko‘zoynak ustidan unga sinchiklab qaradi.

Ammo tag‘in o‘sha loqayd ohangda gapirdi: – *Xabarim bor. Bu gapdan Sherzod: “Yo‘lingdan qolma” degan ma‘noni uqdi.*

Xuddi shu qahramonni esa yuqori lavozim ega, bundan tashqari, moddiy jihatdan “baquvvat”roq qahramon bilan qilgan muomalasida esa boshqacha holatni ko‘rishimiz mumkin:

“Joy ning egasini olib kelayotgan bo‘lsa kerak”, deb o‘yladi Sherzod undan ko‘z uzmay. Bo‘lim mudiri palatasida to‘xtadi-da, eshik tomonga qarab gapirdi: – Sayfi Soqiyevich! Marhamat, kiravering. U bu gapni xuddi aziz mehmonni uyiga chorlagan mezbon singari ichki hurmat bilan iymonib aytdi”. – Bu bizning “lyuks” palatamiz, - dedi bo‘lim mudiri jilmayib. – Sherigingiz, – u boshi bilan imo qilib Sherzodni ko‘rsatdi, – sherigingiz yaxshi yigit. Xurrak otmaydi. Uning gap ohangida: “Qo‘limdan kelsa, bu bolani chiqarib yuborib, sizga palatani bo‘shatib berardim-u, ilojim qancha”, degan ma‘no bor edi. Sherzod shuni tushundi, ijirganib yuzini ugirdi. (O‘. Hoshimov. “Nur borki, soya bor”).

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Muloqot jarayonida ijtimoiy maqom suhbatning rivojlanishiga katta ta‘sir o‘tkazishi mumkin, ayniqsa, agar suhbatdoshlar o‘rtasidagi bu teng bo‘lmasa, bu holat keskin tus olishi mumkin. Bilamizki, moddiy tomoni “baquvvat” inson jamiyatdagi qonunlarni ham pisand qilmay qo‘yishi, oddiy odamlar bulan qiladigan muomalasi orqali xulq-atvori hamda xarakteridagi ko‘pgina salbiy jihatlarini ham namoyon qilishi mumkin, o‘zidan past mavqedagi odamga nisbatan qiladigan munomalasida, garchi yoshi ulug‘ bo‘lsa ham, sensirash, bundan tashqari, vulgarizmlardan ham qo‘pol tarzda foydalanishi mumkinligini badiiy asarlardan olingan parchalar dalillaydi:

Agar dadam ertalab to‘nini teskari kiygan bo‘lsa, peshin vaqtida muallim ham to‘nini teskari kiyadi. Ikkita teskari to‘n kiygan qo‘shnilar kechqurun to‘qnashishadi va chinakam portlash yuz beradi.

– *Bu nima qilganingiz? — qaltirab so‘raydi muallim.*

– **Sening** jazoying shu, — deydi dadam **senlab**.

– *Qaysi aybim uchun jazolaysiz meni?*

– *Akbarni tarbiyalayman deb menga qarshi qilib qo‘yding, majruh o‘g‘lim bizga begona bo‘lib qoldi.*

– *O‘g‘lingizni men yomon yo‘lga boshlabmanmi, halol bo‘lgin, vijdonli bo‘lgin, birovning haqini yeyishga o‘rganmagin desam buning nimasi yomon? – Yo‘qol, bitliqi!*

Quyidagi misolda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqotning mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy omil vazifasini ijtimoiy notenglik bajaradi.

– *Assalomu, alaykum, – Yo‘lchi o‘rnidan turdi. To‘yda ko‘rinmadingiz, Salim aka*

Asardan ma‘lumki, suhbatdoshlar qarindosh bo‘lib, yosh jihatdan ham deyarli teng. Asarda Salimboyvachchaning “yoshi 25 dan oshmagan”deb ta‘riflangan bo‘lsa, Yo‘lchining yoshi ham shunga yaqin. Lekin ularning ijtimoiy maqomi orasida katta farq bor. Salimboyvachcha “Toshkentning to‘rt dahasi biladi”gan Mirzakarimboyning o‘g‘li, Yo‘lchi esa ularning qaroli. Shuning uchun ham sizlashga majbur [6:51].

Quyidagi misolda so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqotning mazmun-mohiyatini belgilovchi asosiy omil vazifasini ijtimoiy notenglik bajaradi.

– *Assalomu, alaykum, – Yo‘lchi o‘rnidan turdi. To‘yda ko‘rinmadingiz, Salim aka*

Asardan ma‘lumki, ssuhbatdoshlar qarindosh bo‘lib, yosh jihatdan ham deyarli teng. Asarda Salimboyvachchaning “yoshi 25 dan oshmagan”deb ta‘riflangan bo‘lsa, Yo‘lchining yoshi ham shunga yaqin. Lekin ularning ijtimoiy maqomi orasida katta farq bor. Salimboyvachcha “Toshkentning to‘rt dahasi biladi”gan Mirzakarimboyning o‘g‘li, Yo‘lchi esa ularning qaroli. Shuning uchun ham sizlashga majbur [6:51].

Baqirib, do‘q urib, o‘shqirib, istehzooli qilib, kinoyali tarzda, buyruq ohangida singari birliklarni, asosan, ijtimoiy maqomi yuqori inson o‘zidan quyi turuvchiga nisbatan qo‘llaganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ijtimoiy maqomi past suhbatdosh nutqining esa muallif *past ohangda, iltijoli, xushomad bilan, yalingansimon* kabi birliklar bilan to‘ldiradi.

XULOSA. Sinfy jamiyatda insonning moddiy ahvoli, odatda, uning shu jamiyat a‘zosi sifatidagi obro‘cini va kam ta‘minlangan odamlar ustidan yuqori darajadagi hukmronligini belgilaydi. Bunday xususiyatlar uning past mavqeli odamlar bilan muloqot qilish uslubiga ta‘sir ko‘rsatadi (takabburona xatti-harakat modelini yuzaga keltiradi) va yuqori mavqeli shaxslar bilan munosabatda (o‘zini ochiqchasiga kamsitishdan tortib qullarcha itoatkorlik va xushomadgo‘ylikkacha) o‘z aksini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Доброходова О.В. Категоризация социального статуса человека в языке (на материале английского и русского языков). дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2012. –139 с.

2. Карасик. В. Язык и социальный статус. – М.: Гнозис, 1992. – 246 с.

3. Крысин Л.П. Русское слово, свое и чужое: Исследования по современному русскому языку и социолингвистике. – М.: Яз. слав. культуры, 2004. – 888 с.

4. Одилов Ё. Тилдаги ўзгаришларда ижтимоий омилларнинг ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2024. – №2. – Б. 12.

5. Сапов В.В. Статуса социального теории // Современная западная социология: Словарь. - М.:Политиздат,1990. – 343 с.

6. Зикриллаев Ғ. Фейлнинг шахс, сон ва ҳурмат категориялари системаси. –Тошкент: Фан, 1990. – 111 б.